

XITOIY IYEROGLI FLARINING JOZIBASI

Furqatova Aziza Furqatovna

SamDCHTI Sharq tillari fakulteti

Filologiya va tillarni o'qitish: Xitoy tili yo'nalishi

2-bosqich 2403-guruh talabasi

azizafurkatova13@gmail.com




+998932363663

Annotatsiya: Ushbu maqola xitoy iyerogliflari kelib chiqishi, tarixi, jozibasi, o'zgacha jihatlari haqida ma'lumot beradi. Bundan tashqari bunda hozirgi iyerogliflarni qadimgi piktografik shakllari va xitoy xattotligi ya'ni kalligrafiyasi bosqichlari to'g'risida tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: iyeroglif, szyaguven, piktografik shakl, kalligrafiya, uslublar.

Xitoy iyerogliflarining kelib chiqishi rasmlar bilan uzviy bog'liq hisoblanadi. Hozirgi xitoyliklarning ajdodlari grafik tasvirlar yordamida ma'no ifodalash yo'lidan borishgan, ya'ni xitoy iyerogliflari shakllanishi qadimgi tasvirlarga borib taqaladi. Xitoy iyerogliflari-bu qadimgi xitoyliklarning o'ziga xos dunyoqarashi natijasida vujudga kelgan ideografik tasviriy timsollardir, boshqacha qilib aytganda, bu oddiy yozuv tizimi emas, balki ming yillik tarix va madaniyatni o'zida mujassam etgan san'atdir [1,17-b.].

Xitoy - qadimgi Sharq tamaddunlaridan biri. Bu mamlakat yozuvining tarixi taxminlarga qaraganda ariyb 5000 yilni o'z chiga oladi. Hozirgi Shandun provinsiyasi, Xuanxe daryosining quyi ogimida mavjud bo'lgan Davenkou madaniyatining sopol buyumlaridagi piktografiya timsollari - eng qadimgi xitoy iyerogliflari hisoblanadi[2,33-b.]. Uch ming yillik tarixga ega bo'lgan Szyaguven, ya'ni suyak va toshbaqa kosasidagi folbinlik yozuvlari - bu keyinroq paydo bo'lgan tizimlashtirilgan va yetuk yozuv bo'lib hisoblanadi. Bundan so'ng xitoy iyerogliflari aynan szyaguven asosida rivojlangan. Katta daryo bo'ylarida joylashgan boshqa qadimgi Sharq sivilizatsiyalari kabi, ilk xitoy yozuv belgilari kichik rasmlarga o'xshash bo'lgan, ya'ni ma'lum bir shakl orqali ma'noni ifodalagan. Xitoylik filologlar ushbu yozuvlardagi ayrim belgilarning shakli qadimgi bronza buyumlariga o'yib tushirilgan iyeroglifli yozuvlarga juda o'xshab ketishini aniqlashgan. Bor-yo'gi ikki kun ichida olimlar szyaguvenni o'qishga muvaffaq bo'lishgan. Bu xitoy iyerogliflarining madaniy izchilligi va bir-biri bilan uzviy bog'langanligini, yangi iyerogliflar esa eskilarining ishonchli ekanligini tasdiqlaydi. Aynan mana shu izchil aloqa tufayli suyak va toshbaqa zirhlaridagi yozuvlarni o'qishda, Shumer ponasimon yozuvlari va Misr iyerogliflaridan farqli ravishda, boshqa turdagi yozuvlarga murojaat qilishga to'g'ri kelmaydi [3,212-b.]. Quyida hozirgi iyerogliflarni qadimgi piktografik shakllarini ko'rish mumkin:

Chinese character	Oracle Bone Inscriptions	Bronze Inscriptions	Seal Script	Official Script	Regular Script
册 Volume					
鸣 Sing					
蛇 Snake					
左 Left					

Iyerogliflarni yozish - bu san'atning bir turi hisoblanib, xitoy kalligrafiyasi, iyerogliflarning badiiy yozilishi va iyeroglifli nashriyotda namoyon bo'ladi. Iyerogliflarni yozish san'ati mazkur yozuv belgilariga butun jahon yozuv madaniyatida o'zining favqulodda go'zalligini namoyon qilishga imkon berdi. Iyerogliflar rasmlardan kelib chiqqan, ularning to'rtburchak shakli osmon, tog'lar va daryolar, shuningdek, tabiatning ko'plab mavhum hodisalarini aks ettirgan. Iyerogliflardagi badiiy element ularni yozish san'ati uchun to'liq tasavvur va bo'shliqni ta'minlab bergan[4,167-b.]. Xitoy kalligrafiyasi- mo'yqalam yordamida iyerogliflarni yozish san'tidir. Bunda xattotning mo'yqalam bilan mohirona ishlashi orqali iyerogliflar o'z go'zalligi va nafisligini to'liq ravishda namoyon qiladi, boshqacha qilib aytganda, kalligrafiya bu iyerogliflar yordamida muallif o'zining tuyg'ularini ifodalaydigan san'at turi hamdir. "Xitoy xattotligi: estetikasi va yozish texnikasiga kirish" asarida Chiang Yee xitoy kalligrafiyasini oddiy yozuv emas, balki "ruhiy va estetik ifoda san'ati" sifatida tasvirlaydi. [5,48-b.] Muallif kalligrafiyaning rivojlanish bosqichlarini ham tarixiy, ham badiiy jihatdan tushuntiradi. 1. Muhr uslubi — 篆书 (Zhuànshū) Bu eng qadimgi kalligrafik uslublardan biri bo'lib, Qin sulolasi davrida keng tarqalgan. Belgilar uzun, yumaloq va simmetrik shaklda yozilgan. 2. Rasmiy uslub — 隶书 (Lìshū) Han sulolasi davrida rivojlangan. Bu uslubda belgilar kengroq va tekisroq yozila boshlagan. Chiang Yee ta'kidlashicha, bu uslub yozuvni tezlashtirgan va amaliy ehtiyojlarga moslashtirgan. 3. Muntazam uslub — 楷书 (Kǎishū) Hozirgi zamonaviy iyerogliflarning asosi. Eng o'qilishi oson uslub. Chiang Yee bu uslubni "xattotlikning mukammal muvozanati" deb ta'riflaydi. 4. Yarim tezkor uslub — 行书 (Xíngshū) Bu uslub erkinlik va o'qilish qulayligi o'rtasidagi muvozanatdir. Bu yozuv inson qo'lining tabiiy harakatiga eng yaqin uslub hisoblanadi. 5. Tezkor uslub — 草书 (Cǎoshū) Eng erkin va san'atkorona uslub. Chiang Yee bu uslubni "raqsga o'xshash yozuv" deb ko'rsatadi. Bu bosqichlar o'zlarining evolyutsion tartibi va xususiyatlariga muvofiq xitoycha belgilarning badiiy jarayonini hamda shakllanishini majoziydan mavhumga, mavhumdan aniqqa va murakkabdan oddiygacha namoyish etadi.

Yuqoridagi bosqichlar xitoy yozuvlari mamlakat madaniyatining muhim ramzlaridan hisoblanadi.

Demak, xitoy iyerogliflari o'zining qadimiy tarixi, tasviriy shakllari va chuqur ma'nosi bilan dunyodagi eng noyob yozuv tizimlaridan biri hisoblanadi. Ular bugungi kunda ham nafaqat til elementi, balki san'at va madaniyatning muhim qismi sifatida qadrlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xitoy iyerogliflari [Matn]: o'quv qo'llanma / S.A.Nasirova, S.A.Xashimova, J.Boybutayev. - Toshkent: «Silk Road Publishing», 2023.
2. Qiu Xigui. Chinese Writing. Berkeley: The Society for the Study of Early China, 2000.
3. L. Wieger. Chinese Characters: Their Origin, Etymology, History, Classification and Signification.
4. Jean Long. The Art of Chinese Calligraphy. Dover Publications, 2001.
5. Chiang Yee. Chinese Calligraphy: An Introduction to Its Aesthetic and Technique. London, 1938.